XALQ DEPUTATLARI SHO‘RCHI TUMANI KENGASHINING QARORI

Sho‘rchi tumani, Mustaqillik ko‘chasi 72-uy. 191500, tel.: (+99876) 457-45-73

2024 - yil 5 - yanvar VI-68-1-8-120-K/24 Sho‘rchi tuman hokimligi

Surxondaryo viloyat Sho‘rchi tumani yuridik va jismoniy shaxslarning qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlariga 2024-yil uchun yer solig‘i stavkalarini belgilash haqida.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 429 va 437-moddalariga asosan Surxondaryo viloyat Sho‘rchi tumani yuridik va jismoniy shaxslarning qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlariga 2024-yil uchun yer solig‘i stavkalarini tasdiqlash yuzasidan bergan hisoboti tinglandi va bildirilgan fikr-mulohazalardan kelib chiqib, xalq deputatlari Sho‘rchi tumani Kengashi

Q A R O R Q I L A D I :

1.**Sho‘rchi tumani Davlat soliq inspeksiyasi *(Sh.Zokirov)*** O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 429 va 437-moddalariga asosan Surxondaryo viloyat Sho‘rchi tumani yuridik va jismoniy shaxslarning qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlariga 2024-yil uchun yer solig‘i stavkalarini tasdiqlash yuzasidan bergan hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2.Sho‘rchi tumani Iqtisodiyot va moliya bo‘limi *(Z.Omonov)*, tuman Davlat soliq inspeksiyasi *(Sh.Zokirov)*ga:

O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonuni bilan O‘zbekiston Respublikasining 2023 yil 29 dekabrdagi “Soliq va byudjet siyosatining 2024 yilga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-891-son Qonuniga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 429-moddasida Surxondaryo viloyatida 1 gektar uchun bazaviy soliq stavkasi 32,0 mln so‘m, 437-moddasida Surxondaryo viloyatida 1 kv.metr uchun bazaviy soliq stavkasi 300 so`m etib belgilanganligi, Xalq deputatlari Surxondaryo viloyat kengashining 2023 yil 30 dekabrdagi VI-81-233-8-0-K/23-son qarori bilan

Sho‘rchi tumani bo‘yicha qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yuridik shaxslarning 1 gektar yeri uchun 42,8 mln.so‘m hamda jismoniy shaxslarning 1 kvadrat metr yeri uchun 392 so‘m bazaviy soliq stavkalari bo‘yicha taklif kiritilganligi (yuridik va jismoniy shaxslarning) qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun shahar va tumanlar kesimida, ularning iqtisodiy rivojlanishiga qarab yer solig‘i stavkasiga 0,5 dan 2,0 gacha kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni qo‘llagan holda yer solig‘i stavkalarini belgilashi mumkinligi yuzasidan tuman axborot xizmati bilan hamkorlikda chiqishlarni amalga oshirish va ommaga taqdim etish;

belgilangan yer solig‘i stavkalariga (yuridik va jismoniy shaxslarning) qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun, hududlarida joylashgan mahalla kesimida 0,7 dan 3,0 gacha kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni qo‘llashlari yuzasidan ma’lumotlarni ta’minlab berish;

tuman xalq deputatlari Kengashi tomonidan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkalari uchun keyingi soliq davriga tasdiqlangan soliq stavkalarini besh kun ichida soliq to‘lovchilarga ma’lumot uchun yetkazilishini ta’minlash;

yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan mavjud yer maydonlari uchun hisoblangan yer soliqlarini o‘z vaqtida va to‘liq to‘lab borishlarini nazoratga olish;

yuridik va jismoniy shaxslarga hisoblangan yer solig‘i va undirilgan soliqlari to‘g‘risida xalq deputatlari tuman Kengashiga har chorakda hisobot berib borish vazifasi yuklatilsin.

4.O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi bilan belgilanadigan soliq stavkalari asosida (yuridik va jismoniy shaxslarning) qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun mahallalar kesimida, ularning iqtisodiy rivojlanishiga qarab kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlari **ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

5.**Sho‘rchi tumani Kengashi deputatlari va tuman axborot xizmati *(N.Shoeva)*** mazkur loyihalarni amalga oshirishdan maqsad va uning tuman iqtisodiyotini yuksaltirishdagi afzalliklari to‘g‘risida ommaviy axborot vositalari va internet tarmoqlarida keng yoritib borish tavsiya etilsin.

6.Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi zimmasiga yuklansin.

7.Ushbu qaror e’lon qilingan kundan kuchga kiradi.

Sessiya raisi **G.D.Norboyev**

Xalq deputatlari Sho‘rchi tuman
Kengashining
2024-yil 5-yanvardagi
VI-68-1-8-120-K/24-son qaroriga
1-ilova

Sho'rchi tumani bo‘yicha yuridik va jismoniy shaxslarga 2024-yil uchun belgilangan yer solig‘i bazaviy stavkalariga qo‘llaniladigan koeffisiyentlar

№	Mahalla nomi	Yuridik shaxslar uchun yer solig‘i stavkasi		Jismoniy shaxslar uchun yer solig‘i stavkasi	
		Koeffisiyent miqdori	Soliq summasi (1 gektar uchun, so‘mda)	Koeffisiyent miqdori	Soliq summasi (1 kv.m uchun, so‘mda)
1	Joyilma MFY	0,82	35 096 000	0,79	310
2	A.Navoiy MFY	0,91	38 948 000	0,89	350
3	Baxshtepa MFY	0,70	29 960 000	0,79	310
4	Baxshtepa-1 MFY	0,70	29 960 000	0,79	310
5	Bobotog MFY	0,90	38 520 000	0,89	350
6	Bobur MFY	0,90	38 520 000	0,89	350
7	Bunyodkor MFY	0,70	29 960 000	0,79	310
8	Buston MFY	0,90	38 520 000	0,89	350
9	Garmakurg‘on MFY	0,70	29 960 000	0,79	310
10	Guzallik MFY	0,70	29 960 000	0,79	310
11	Guliston MFY	0,70	29 960 000	0,79	310
12	Dustlik MFY	0,70	29 960 000	0,79	310
13	Yoshgayrat MFY	0,70	29 960 000	0,79	310
14	Jarqishloq MFY	0,81	34 668 000	0,79	310
15	Zarbdor MFY	0,70	29 960 000	0,79	310
16	Ibn-Sino MFY	0,90	38 520 000	0,89	350
17	Kakan MFY	0,70	29 960 000	0,79	310
18	Katta savur MFY	0,81	34 668 000	0,79	310
19	Kokaydi MFY	0,70	29 960 000	0,79	310
20	Konobod MFY	0,70	29 960 000	0,79	310
21	Koraarik MFY	0,70	29 960 000	0,79	310
22	Kuklam MFY	0,90	38 520 000	0,89	350

23	Kushon MFY	0,70	29 960 000	0,79	310
24	Kushtegirmon MFY	0,81	34 668 000	0,79	310
25	Laylakxona MFY	0,70	29 960 000	0,79	310
26	Navruz MFY	0,89	38 092 000	0,89	350
27	Obodon MFY	0,71	30 388 000	0,79	310
28	Ozod MFY	0,71	30 388 000	0,79	310
29	Oynakul MFY	0,71	30 388 000	0,79	310
30	Okkamar MFY	0,71	30 388 000	0,79	310
31	Oqqo‘rg‘on MFY	0,71	30 388 000	0,79	310
32	Oktumshuk MFY	0,71	30 388 000	0,79	310
33	Olatemir MFY	0,71	30 388 000	0,79	310
34	Oliyximmat MFY	0,71	30 388 000	0,79	310
35	Oftobmakon MFY	0,71	30 388 000	0,79	310
36	Saksankapa MFY	0,71	30 388 000	0,79	310
37	Saurtepa MFY	0,71	30 388 000	0,79	310
38	Sovjironbobo MFY	0,71	30 388 000	0,79	310
39	Tamaddun MFY	0,71	30 388 000	0,79	310

40	Tamshush MFY	0,71	30 388 000	0,79	310
41	Tolli MFY	0,71	30 388 000	0,79	310
42	Tula MFY	0,81	34 668 000	0,73	287
43	Xayrobod MFY	0,89	38 092 000	0,89	350
44	Xurlik MFY	0,70	29 960 000	0,79	310
45	Xushchekka MFY	0,71	30 388 000	0,79	310
46	Shakarkul MFY	0,71	30 388 000	0,79	310
47	Shaldirok MFY	0,71	30 388 000	0,79	310
48	Egarchi MFY	0,71	30 388 000	0,79	310
49	Ezgulik MFY	0,71	30 388 000	0,79	310
50	Elbayon MFY	0,81	34 668 000	0,73	287
51	Yakkabog MFY	0,71	30 388 000	0,79	310
52	Yalti MFY	0,81	34 668 000	0,73	287
53	Yangiarik MFY	0,71	30 388 000	0,79	310